

SHAXS RIVOJIDA MUHIT, TARBIYA VA TA'LIMNING O'ZARO TA'SIRI

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
Pedagogika yo'nalishi talabasi Jo'rayeva Zulfiya

Annotasiya: Ushbu maqolada shaxs rivojlanish jarayonida muhit, tarbiya va ta'limning o'zaro aloqadorligi hamda ular bir-birini to'ldiruvchi omillar sifatidagi roli tahlil qilinadi. Muhit insonning dastlabki ijtimoiylashuv jarayonini belgilab beradi, tarbiya esa uning ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini shakllantiradi. Ta'lim jarayoni shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantiradi, mustaqil fikrlash, o'zini anglash va jamiyatda faol ishtirok etish ko'nikmalarini hosil qiladi. Maqolada ushbu uch omilning uzviy bog'liqligi, ularning uyg'unlashuvi natijasida barkamol inson shaxsini shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, muhit, tarbiya va ta'lim o'rtasidagi uzviylik shaxsning har tomonlama rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Shaxs rivoji, muhit, tarbiya, ta'lim, o'zaro ta'sir, ijtimoiylashuv, barkamol inson.

Kirish. Har bir jamiyatning taraqqiyoti, avvalo, uning inson kapitaliga — ya'ni ma'naviy yetuk, intellektual salohiyatli va ijtimoiy faol shaxslarning mavjudligiga bog'liqdir. Inson esa o'z tabiati bilan ijtimoiy mavjudot bo'lib, uning shakllanishi muhit, tarbiya va ta'limning o'zaro ta'siri orqali yuzaga chiqadi. Shaxsning kamol topishi tasodifiy emas, balki izchil, uzluksiz va muvozanatli jarayondir. Inson hayotining dastlabki davrlaridan boshlab u muayyan ijtimoiy muhitda yashaydi. Oila, atrof-muhit, tengdoshlar, mahalla, maktab va jamiyatning boshqa bo'g'inlari uning tafakkurini, dunyoqarashini va qadriyatlarini shakllantiruvchi asosiy manbalardir. Agar muhit sog'lom, mehr-

muhabbatga boy, ma'naviy jihatdan toza bo'lsa, insonning rivojlanishi ham tabiiy ravishda ijobiy yo'nalishda kechadi. Tarbiya esa insonning ruhiy, axloqiy va ma'naviy kamolotini ta'minlaydigan eng muhim omildir.

Ota-ona, ustoz va jamiyat vakillarining birgalikdagi harakati orqali inson qalbida ezgulik, vatanparvarlik, halollik va insonparvarlik kabi fazilatlar shakllanadi. Shuning uchun tarbiya nafaqat oilaviy mas'uliyat, balki butun jamiyatning dolzarb vazifasidir. Ta'lim esa shaxsni tafakkur va bilim jihatidan yuksaltiradi. U insonni zamonaviy hayot talablariga moslashtiradi, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ta'lim jarayoni insonni ongli, maqsadli va faol fuqaroga aylantiruvchi eng muhim kuchdir. Shunday qilib, muhit, tarbiya va ta'lim biri-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular inson shaxsining shakllanishida yagona tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Muhit — asos, tarbiya — yo'naltiruvchi kuch, ta'lim esa — rivojlanishning vositasi hisoblanadi. Ularning uyg'unligi natijasidagina jamiyat uchun foydali, barkamol, ijtimoiy mas'uliyatli inson shakllanadi. Shu bois, ushbu mavzu bugungi kunda nafaqat pedagogika, balki ijtimoiy hayot, ta'lim tizimi va ma'naviy tarbiya siyosati uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni (2020-yil 23-sentabrda yangi tahrirda qabul qilingan) shaxsning har tomonlama kamol topishi, ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishi va jamiyat taraqqiyotiga faol hissa qo'shishiga huquqiy zamin yaratadi. Mazkur qonunning 3-moddasida ta'lim va tarbiya tushunchalari alohida yoritilib, ularning uzviy bog'liqligi ta'kidlanadi. Ya'ni, ta'lim — bu bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon bo'lsa, tarbiya — shaxsni ma'naviy-axloqiy, estetik va ijtimoiy jihatdan shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Bu ta'riflardan kelib chiqadiki, inson rivojlanishida ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilangina cheklanmay, balki ijtimoiy muhitda to'g'ri yo'nalish beruvchi tarbiyaviy kuch sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli ta'lim-tarbiya tizimi oila, maktab, jamoa

va keng ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri asosida amalga oshiriladi. Qonunning 4-moddasida esa har bir fuqaroga ta'lim olish uchun teng imkoniyatlar kafolatlanishi belgilab qo'yilgan. Bu norma inson rivojlanishining ijtimoiy asoslarini mustahkamlaydi, chunki ta'lim va tarbiya imkoniyatlari teng bo'lgan jamiyatda shaxs o'z qobiliyatini to'liq namoyon eta oladi. Natijada insonning ijtimoiy faolligi, o'z fikrini erkin ifoda etish madaniyati va mas'uliyat hissi kuchayadi. Shuningdek, Ta'lim to'g'risida Qonunda uzluksiz ta'lim prinsipi alohida e'tirof etiladi. Bu prinsipga ko'ra, inson hayoti davomida bilim olish, yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashish va o'zini takomillashtirish imkoniga ega bo'ladi. Bu g'oya maqolada ilgari surilgan "inson rivoji — muhit, tarbiya va o'zaro ta'sir natijasidir" degan asosiy konsepsiyani to'liq qo'llab-quvvatlaydi.

Demak, mazkur qonun nafaqat ta'lim jarayonining tashkiliy asoslarini belgilaydi, balki shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlash, oila va muhit bilan uzviy bog'liq tarzda shakllantirish g'oyasini ham o'zida mujassamlashtiradi. Shu ma'noda "Ta'lim to'g'risida" Qonuni insonning jamiyatdagi o'rnini, tarbiya va ijtimoiy moslashuv jarayonlarining davlat miqyosidagi kafolatli tizimini belgilab beradi. Shaxs rivojlanishida nafaqat zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimlari, balki xalq pedagogikasining qadimiy tajribalari ham muhim o'rin tutadi.

Xalq pedagogikasi — bu avloddan-avlodga o'tib kelayotgan hayotiy tajribalar, axloqiy me'yorlar va tarbiyaviy qadriyatlar tizimidir. U xalqning tarixiy va ijtimoiy tafakkurining mahsuli sifatida insonni jamiyat hayotiga tayyorlovchi kuchli ijtimoiy-pedagogik vositadir. Xalq pedagogikasida mavjud hayotiy (maishiy), mehnat va axloqiy tajribalar insonning kundalik faoliyatida, muomala jarayonida tabiiy tarzda o'zlashtiriladi. Bu jarayon faqat bolalar uchun emas, balki kattalar uchun ham davomli o'rganish manbai hisoblanadi. Shu jihatdan xalq pedagogikasi ijtimoiy ahloq, odob, mehnatsevarlik, mehr-shafqat, mehmondo'stlik, halollik kabi fazilatlarning shakllanishida asosiy o'rin tutadi.

O'zbek xalq pedagogikasida shaxsning shakllanishi insonning hayotiy tajribasi, atrof-muhit va ijtimoiy munosabatlar orqali amalga oshadi, degan chuqur fikr mavjud. Bola jamiyatda o'z o'rnini topishi, boshqalar bilan muomala qilishni, ularning his-tuyg'ularini anglashni, o'zini tutish madaniyatini aynan xalq tarbiyaviy qadriyatlari orqali o'rganadi. Shu bois xalq pedagogikasi insonni ijtimoiylashuv jarayonida tabiiy muhit va milliy qadriyatlar orqali tarbiyalovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Xalq pedagogikasida shaxs hali go'daklik davridayoq inson sifatida shakllanishi uchun muhit va tarbiyaning muvozanatli bo'lishiga katta e'tibor qaratilgan. "Chaqaloq hali shaxs emas, u inson bo'lishi ota-onasi, muhit va jamiyatga bog'liq", degan xalq hikmati bejiz emas. Bu fikr zamirida shaxsni tarbiyalash jarayoni tug'ilish bilan birga boshlanishi lozimligi haqidagi chuqur hayotiy falsafa yotadi.

Bunday vaziyatlarda ijtimoiy pedagogik yondashuvlar, xususan intervent va muammoli modellarning qo'llanilishi shaxs va oila farovonligini tiklashda samarali natijalar beradi. Intervent modelida asosiy e'tibor oila a'zolariga emotsional yordam, ruhiy turg'unlikni tiklash va muammoni tahlil qilish orqali moslashuvchan yo'l topishga qaratiladi. Bu jarayon, aslida, insonning o'z ichki imkoniyatlarini qayta faollashtirishga yordam beradi. Muammoli model esa ijtimoiy-pedagogik yordamning amaliy shakli bo'lib, oilaning mavjud muammolarini hal etishga, mas'uliyatni o'zaro taqsimlashga va o'z kuchlariga tayanishga o'rgatadi. Bu yondashuvda oila va mutaxassis o'rtasida axloqiy shartnoma tuziladi, ya'ni tomonlar bir-biriga nisbatan ishonch va hamkorlik tamoyiliga amal qiladilar. Shu tariqa, oila a'zolarida o'zaro muloqot, tinglash, muammoni tinch yo'l bilan hal etish, fikr almashish kabi ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi.

O'z navbatida, uzoq muddatli ijtimoiy-pedagogik ish shakllari psixoiijtimoiy yondashuvga asoslanadi. Bu esa shaxsning ijtimoiy muhitdagi xulq-atvorini, o'zini anglashini va boshqalar bilan munosabatlarini chuqur

tahlil qilishni talab etadi. Bunday yondashuvda pedagogning maqsadi – oilaning ichki tizimini mustahkamlash, o‘zaro hurmat va ishonch asosida sog‘lom kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yishdir. Patronaj shaklida olib boriladigan ijtimoiy pedagogik yordam esa oila hayotini doimiy kuzatish, qo‘llab-quvvatlash va maslahat berish orqali ularning mustaqil ijtimoiy faoliyat yuritish malakasini oshiradi. Bunda pedagog oila a‘zolari bilan tizimli muloqot olib boradi, ularning ijtimoiylashuv darajasini, tarbiya uslublarini va ijtimoiy rolini kuzatadi. Natijada oila – ijtimoiy tizim sifatida barqarorlashadi, shaxs esa o‘zining ijtimoiy vazifalarini anglay oladi. Umuman olganda, inson rivoji, ijtimoiy muhit va tarbiya jarayonlari bir-biridan ajralmas holda kechadi. Oila — bu kichik ijtimoiy makon bo‘lib, unda xalq pedagogikasining qadriyatlari, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik kabi insoniy fazilatlar amalda namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, har bir oilaning sog‘lom ijtimoiy muhit yaratishdagi o‘rni inson kamolotining poydevorini tashkil etadi.

Xulosa: Shaxs rivojlanishi jarayonida muhit, tarbiya va ta’limning o‘zaro ta’siri hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolada keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, inson shaxsining shakllanishi faqat biologik yoki tabiiy omillar natijasi emas, balki ijtimoiy muhit, maqsadli tarbiya va sifatli ta’limning uyg‘unligi orqali ta’minlanadi. Muhit shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy xulqini belgilab beruvchi asosiy maydon bo‘lib xizmat qiladi, tarbiya esa bu jarayonga ongli yo‘naltirilgan ta’sirni amalga oshiradi, ta’lim esa inson tafakkurini, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirib, uni jamiyat hayotiga faol moslashtiradi. Shunday ekan, shaxs kamolotida ushbu uch omil o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini inobatga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonini tashki etish zamonaviy pedagogikaning eng muhim vazifalaridan biridir. Natijada, har tomonlama yetuk, fikrlovchi, ma’naviy barkamol va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston respublikasi „Ta'lim to'g'risida”gi qonuni O'RQ.637- son.
23.09.2020 yil
2. Nodira Egamberdiyeva „ijtimoiy pedagogika darslik” Toshkent - 2009-yil
3. A. A. Axmedov. Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. Buxoro-2023-yil.
4. M. Ishanova. Oila pedagogikasi. O'quv qo'llanma. Andijon-2019.